


FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (2020-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 3782,2 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 30,2 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sdi.





**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020-yil 1 iyul holatiga, ming kishi)**





Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020-yil 1 iyul holatiga eng ko`p aholi soni Farg`ona shahrida 291,1 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 258,9 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 94,0 ming kishi (2,5 %) va So`x tumanida 78,0 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019 yilning mos davriga nisbatan Bog`dod va Dang`ara tumanlarida 2,2 % ni, Qo`qon va Marg`ilon shaharlarida 1,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Beshariq va Rishton tumanlarida 1,7 % ni tashkil etdi

Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, % da




Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, % da



Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 40,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,6 promilleni tashkil etdi hamda 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,4 promillega oshganligi kuzatildi (2019- yilning yanvar-iyun oylarida 20,2 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti


(2020- yil yanvar-iyun 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni

(2020-yil yanvar-iyun oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni


(yanvar-iyun)



Yillar

Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 8,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega tushganligi (2019- yilning yanvar-iyun oylarida 4,6 promille bo'lgan) kuzatildi.

Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (2020- yil oylar bo'yicha ming kishi)




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-iyun)



Yillar


Hududlar kesimida go'daklar o'limi soni (2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, tirk tug'ilganga nisbatan)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,6 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,8 foizi o'simtalardan, 4,4 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,0 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,8 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro`yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 321 nafarni tashkil etib, ularning 34,5 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 32,0 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,8 foizi tug`ma anomaliyalardan, 3,4 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,5 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,2 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 6,6 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikoh. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi.

Uchko`prik tumanida (kamayish sur`ati 39,2 foiz), Qo`qon shahar (kamayish sur`ati 31,7 foiz) kamayish holatlari yuz berdi


Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-iyun, ming)




Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 1,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot

(yanvar-iyun, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo`yicha ko`chib kelganlar soni 3879 kishini tashkil etdi.



2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo`yicha ko`chib ketganlar soni esa 6062 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosi minus 2183 kishi bo`lib, 2019 yilning o`tgan shu davrida minus 751 kishi bo`lgan.

Aholi migratsiyasi (kishida)

	2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
Ko`chib kelganlar	6519	3879	O`tgan yilning shu davriga nisbatan ko`chib kelganlar soni 3879 kishi, ko`chib ketganlar soni esa 6062 kishi . 2020-yilning 6 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Beshariq tumani (minus 382 kishi) va eng yuqori o`sish darajasi Farg`ona 303 kishi shaharida qayd etildi.
Ko`chib ketganlar	7270	6062	
Migratsiya saldosi	-751	-2183	

Demografiya va mehnat statistikasi bo`limi.
tel:(373) 249-87-32